

QISHLOQ XO'JALIK TERMINLARINING ITALYAN-O'ZBEK TARJIMASIDAGI O'RNI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Shodiyeva Umida Burxon qizi - MA student of UzSWLU

umidashb25@gmail.com

Scientific supervisor: **B.S.Ergasheva**, UzSWLU

Phd, Docent: **B.Sh.Boybulo**v, Scientific Experimental Station,

Research Institute of Livestock and Poultry (RILP)

Annotatsiya: Ushbu maqola qishloq xo'jaligi terminlarining italyan va o'zbek tillaridagi tarjimaviy xususiyatlari hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada italyan–o'zbek qishloq xo'jaligi terminlari morfologik, fonetik, semantik va sintaktik jihatlarini bo'yicha qiyosiy tahlil qilinadi. Tarjima jarayonida uchraydigan asosiy muammolar, terminlarning zamonaviy tendensiyalari, agrotexnologiyalar, ekologik va barqaror qishloq xo'jaligi, raqamli boshqaruv tizimlari bilan bog'liq yangi terminlar misollari keltiriladi. Tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligi sohasida xalqaro tajribani o'zlashtirish, milliy terminologiyani boyitish va zamonaviy agrotexnologiyalarni amaliyotga joriy etishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tarjima, lingvistik tahlil, sug'orish, ekin yetishtirish, terminologiya, semantika, sintaksis, chorvachilik, o'g'it, raqamli agrotexnologiyalar.

Abstract: This article is devoted to the study of the translational features and modern development trends of agricultural terminology in Italian and Uzbek. The article provides a comparative analysis of Italian–Uzbek agricultural terms in terms of morphology, phonetics, semantics, and syntax. The main problems in the translation process, modern trends in terminology, examples of agro-technologies, ecological and sustainable agriculture, and new terms related to digital management systems are presented. The research results contribute to the adoption of international experience

in agriculture, enrichment of national terminology, and practical implementation of modern agro-technologies.

Keywords: translation, linguistic analysis, irrigation, crop cultivation, terminology, semantics, syntax, livestock farming, fertilizer, digital agro-technologies

Аннотация: *Данная статья посвящена изучению переводческих особенностей и современных тенденций развития сельскохозяйственной терминологии на итальянском и узбекском языках. В статье проводится сравнительный анализ итальянско-узбекских сельскохозяйственных терминов с точки зрения морфологии, фонетики, семантики и синтаксиса. Приводятся основные проблемы процесса перевода, современные тенденции терминологии, примеры агротехнологий, экологическое и устойчивое сельское хозяйство, а также новые термины, связанные с цифровыми системами управления. Результаты исследования способствуют освоению международного опыта в сельском хозяйстве, обогащению национальной терминологии и практическому внедрению современных агротехнологий.*

Ключевые слова: *перевод, лингвистический анализ, орошение, возделывание культур, терминология, семантика, синтаксис, животноводство, удобрения, цифровые агротехнологии*

Mamlakatimizda hozirgi kunda qishloq xo'jaligining chorvachilik tarmog'ida olib borilayotgan keng islohotlar va davlatlar o'rtasidagi do'stona va diplomatik aloqalarning mustahkamlanishi natijasida Italiya va O'zbekiston o'rtasida ko'plab yirik bitimlar imzonlamoqda va ko'plab loyihalar amalga oshirilishi yo'lga qo'yilmoqda. Jumladan, 2025-yil 28-may kuni Italiya bosh vaziri Jorja Melonining rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga kelgani va davlatimiz rahbari bilan Samarqand shahrida ikki tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalri ko'rib chiqilgani bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Shuningdek, xususiy tadbirkorlikning innovatsion loyihalari, o'ta muhim minerallar va qishloq xo'jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash, kompleks yo'l

xaritasi asosida qishloq xo'jaligida keng ko'lamli ilmiy-texnologik hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi belgilab olindi. Uzum, zaytun, za'faron, sarsabil yetishtirish, agrolaboratoriyalar tashkil etish, biotexnologiyalar rivojlantirish va agrosug'urtani joriy qilish bo'yicha kooperatsiya istiqbollari qayd etildi.

Rasmiy uchrashuvda ta'lim sohasida mamlakatimizda Tushiya universiteti filialini ochishni ishga tushirish rejalari qo'llab-quvvatlandi. Qayd etilishicha, yangi universitetda talabalar bakalavriat bosqichida "Qishloq xo'jaligi fanlari" va "Oziq-ovqat texnologiyalari" fakultetlarida, magistratura bosqichida esa "Qishloq xo'jaligi fanlari" va "Bioiqtisodiyot" fakultetlarida tahsil olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, qo'shma ta'lim dasturi doirasida talabalar Italiyada ham o'qishlari rejalashtirilgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligida sohasida nafaqat ilmiy va texnik ma'lumotlarni da, balki amaliy ishlarni tashkil etishda, ta'lim jarayonlarida ham terminologiya muhim rol o'ynaydi. Italian va o'zbek tillarida ishlatiladigan qishloq xo'jaligi terminlari o'rtasidagi tarjima jarayoni lingvistik xususiyatlar, semantik moslashuv va zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini o'rganish imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligi terminlari tarjimada asosiy tushunchalarni aniq ifodalash, ilmiy va amaliy axborotni to'g'ri uzatish hamda mutaxassislar o'rtasida samarali mulqotni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Italian-o'zbek tarjima jarayonida ushbu terminlarning o'rni ayniqsa katta, chunki ikki til turli til oilalariga mansub bo'lib, ularning leksik va grammatik tuzilishi sezilarli darajada farqlanadi.

Qishloq xo'jaligiga oid matnlar — ilmiy maqolalar, texnik yo'riqnomalar, agrotexnik tavsiyalar, kataloglar, lug'atlar va xalqaro shartnomalar — terminologik aniqlikni talab qiladi. Termin noto'g'ri tarjima qilingan taqdirda, ishlab chiqarish jarayonida jiddiy xatolarga olib kelishi mumkin.

1-jadval

Italyancha	O'zbekcha	Ma'noviy izoh
<i>Irrigazione</i>	sug'orish	Qishloq xo'jaligida suv bilan ta'minlash

<i>Drenaggio</i>	drenaj	Tuproqdagi ortiqcha suvni chiqarish
<i>Fertilizzante</i>	o'g'it	Mineral yoki organik modda
<i>Pesticida</i>	pestitsid	Zararkunandalarga qarshi vosita
<i>Raccolta</i>	hosil yig'imi	Yetilgan mahsulotni yig'ish jarayoni

Bu terminlar tarjimada aniq ekvivalentga ega bo'lib, ularni noto'g'ri yoki erkin tarjima qilish ma'no buzilishiga olib keladi.

Italyan tilidagi qishloq xo'jaligi adabiyotlari o'zbek tiliga tarjima qilinishi orqali zamonaviy agrotexnologiyalar va ilmiy yutuqlar mahalliy mutaxassislarga yetkaziladi. Bu jarayonda terminlarning to'g'ri tarjimasi ilmiy axborotning to'liq o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Misol:

- *Rotazione delle colture* → ekin almashinuvi

Ushbu termin noto'g'ri tarzda “ekinlarni aylantirish” deb tarjima qilinsa, ilmiy mazmun to'liq ochilmaydi. “Ekin almashinuvi” termini o'zbek agronomiya adabiyotlariga xos hisoblanadi.

- *Lavorazione del terreno* → tuproqqa ishlov berish

Bu termin yer haydash, yumshatish, tekislash kabi jarayonlarni umumlashtirib ifodalaydi va 2-3 xil kontekstda birdek foydalanilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi terminlarining tarjimadagi muhim vazifalaridan biri — terminologik birlikni saqlashdir. Italyan tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan terminlar rasmiy hujjatlar, darsliklar va ilmiy ishlar doirasida bir xil shaklda qo'llanishi zarur.

Bu terminlarning yagona shaklda qo'llanilishi ilmiy va amaliy matnlarda tushunarliklikni oshiradi.

2-jadval

Italyancha	O'zbekcha	Manoviy izoh
<i>Agricoltura biologica</i>	organik qishloq xo'jaligi	Xalqaro termin

<i>Produzione agricola</i>	qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish	Rasmiy hujjatlarda qo'llanadi
<i>Macchine agricole</i>	qishloq xo'jaligi texnikalari	Texnik hujjatlarda
<i>Serra</i>	issiqxona	Amaliy dehqonchilikda

Italyan tilidagi ba'zi terminlar o'zbek tiliga tarjima qilinayotganda kengroq yoki torroq ma'noda berilishi mumkin. Bu holat tarjimonning terminlar funksiyasini to'g'ri o'rganishini talab etadi.

Qiyosiy misol:

- *Coltura* → ekin
- *Coltivazione* → ekin yetishtirish jarayoni

Agar bu ikki termin farqlanmasa, ilmiy matnda ma'no chalkashligi yuzaga keladi.

Qishloq xo'jaligi terminlarining italyan–o'zbek tarjimasidagi o'rni juda muhim bo'lib, ular ilmiy axborotni aniq yetkazish, zamonaviy tajribani o'zlashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etishda asosiy vosita hisoblanadi. Terminlarning to'g'ri, standart va funksional tarjimasi qishloq xo'jaligi sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy qishloq xo'jaligi fan-texnika taraqqiyoti, ekologik muammolar va raqamlashtirish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanmoqda. Bu jarayon italyan tilida yangi qishloq xo'jaligi terminlarining paydo bo'lishiga sabab bo'lib, ularni o'zbek tiliga to'g'ri tarjima qilish dolzarb masalaga aylanmoqda. Zamonaviy terminlar asosan agrotexnologiya, ekologik dehqonchilik va raqamli boshqaruv sohalarida shakllanmoqda.

Italyan qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilg'or agrotexnologiyalar keng joriy etilmoqda. Ushbu texnologiyalar bilan bog'liq terminlar o'zbek tiliga tarjima qilinayotganda ularning ilmiy mazmuni to'liq saqlanishi lozim.

3-jadval

Italyancha	O'zbekcha	Ma'noviy izoh
<i>Agricoltura di precisione</i>	Aniq/ raqamli qishloq xo'jalik	Raqamli va sensorli boshqaruv
<i>Sistema di irrigazione a goccia</i>	tomchilatib sug'orish tizimi	Suvni tejoyvchi texnologiya
<i>Meccanizzazione agricola</i>	qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash	Texnik vositalardan foydalanish
<i>Automazione agricola</i>	qishloq xo'jaligini avtomatlashtirish	Avtomatik boshqaruv

Bu terminlarni erkin yoki so'zma-so'z noto'g'ri tarjima qilish ularning ilmiy mazmunini susaytiradi.

Zamonaviy tendensiyalarning muhim yo'nalishlaridan biri ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan barqaror qishloq xo'jaligi hisoblanadi. Italyan tilida ushbu sohada shakllangan terminlar o'zbek tiliga asosan moslashtirilgan tarjima orqali o'tkaziladi.

4-jadval

Italyancha	O'zbekcha	Ma'noviy izoh
<i>Sostenibilità agricola</i>	qishloq xo'jaligining barqarorligi	Ekologik muvozanat
<i>Riduzione dell'impatto ambientale</i>	atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish	Ekologik choralar
<i>Uso razionale delle risorse</i>	resurslardan oqilona foydalanish	Suv va yer tejami

Bu terminlar zamonaviy ilmiy matnlarda barqarorlik tushunchasini ifodalashda muhim o‘rin tutadi.

Raqamlashtirish qishloq xo‘jaligi sohasiga ham jadal kirib kelmoqda. Italyan tilida ushbu jarayon bilan bog‘liq terminlar inglizcha asosda shakllanib, o‘zbek tiliga ko‘pincha izohli tarjima orqali o‘tkaziladi. Quyida biz misollarni italyan va o‘zbek tilida taqdim qilamiz

5-jadval

Italiyancha	O‘zbekcha	Ma’noviy izoh
<i>Digitalizzazione agricola</i>	qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish	IT texnologiyalar
<i>Monitoraggio delle colture</i>	ekinlarni monitoring qilish	Sensor va dronlar
<i>Gestione dei dati agricoli</i>	qishloq xo‘jaligi ma’lumotlarini boshqarish	Axborot tizimlari
<i>Piattaforma digitale agricola</i>	raqamli agroplatforma	Onlayn boshqaruv

Bu terminlarning tarjimasida aniqlik va tushunarliklik jihatidan ustuvor ahamiyatga ega.

Italyan tilidagi zamonaviy qishloq xo‘jaligi terminlari o‘zbek tiliga tarjima qilinayotganda:

- milliy til me’yorlariga moslashadi
- so‘z birikmalari orqali ifodalanadi
- amaliy qo‘llanishga mos shaklga keltiriladi

Misol:

- *Tecnologie innovative* → **innovatsion texnologiyalar**
- *Sviluppo agricolo moderno* → **zamonaviy qishloq xo‘jaligi rivoji**

Bu holat terminlarning o‘zbek tilida barqaror qo‘llanishiga xizmat qiladi.

Italyan–o‘zbek tarjimada qishloq xo‘jaligi terminlarining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari texnologik, ekologik va raqamli yo‘nalishlar bilan bevosita bog‘liqdir. Zamonaviy terminlarning to‘g‘ri va ilmiy asoslangan tarjimasi qishloq xo‘jaligi sohasida ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirishga imkon yaratadi.

Italyan va o‘zbek tillarida qishloq xo‘jaligi terminlarining tarjimasi nafaqat lingvistik masala, balki ilmiy va amaliy ahamiyatga ega jarayon sifatida qaraladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, italyancha qishloq xo‘jaligi terminlari ko‘p bo‘g‘inli, murakkab, lotin ildizlariga asoslangan va ilmiy aniqlikni talab qiluvchi birliklardan tashkil topgan. O‘zbek tilidagi terminlar esa ko‘proq sodda, amaliy, tavsifiy va xalq amaliyoti asosida shakllangan. Shu sababli, italyan–o‘zbek tarjimada terminlarni mazmunan saqlash va funksional moslikni ta‘minlash muhim ahamiyatga ega.

Natijada italyan–o‘zbek qishloq xo‘jaligi terminlarining aniq tarjimasi soha mutaxassislarining bilim va amaliyotini boyitadi, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etishga xizmat qiladi hamda xalqaro ilmiy hamkorlikni mustahkamlaydi. Bu esa milliy qishloq xo‘jaligi sohasida terminologik barqarorlik va ilmiy o‘zlashtirish jarayonini rag‘batlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bonfante G. Terminologia agricola italiana. – Milano: FrancoAngeli, 2018. – 256 b.
2. Rossi L., Conti F. Agricoltura moderna e tecnologie innovative. – Roma: Carocci Editore, 2020. – 312 b.
3. De Santis M. Vocabolario di allevamento e produzione lattiero-casearia. – Firenze: Le Monnier, 2017. – 198 b.
4. Karimov T. O‘zbek qishloq xo‘jaligi terminologiyasi: lug‘at va izohlar. – Toshkent: Fan, 2019. – 145 b.
5. Akbarov S., Qodirov A. Zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnologiyalari va ularning terminologiyasi. – Toshkent: Universitet Nashriyoti, 2021. – 178 b.

6. Zanon P. Agricoltura di precisione e sostenibilità. – Bologna: Il Mulino, 2016. – 203 b.
7. Mirzaeva N. Qishloq xo‘jaligi terminlarini tarjimada lingvistik xususiyatlari. – Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi, 2020. – 134 b.
8. Boccacci R. Tecnologie digitali in agricoltura. – Milano: Springer, 2019. – 217 b.
9. Nazarov D. Raqamli va organik qishloq xo‘jaligi: o‘zbek tilida terminologik tahlil. – Toshkent: Fan va Texnologiya, 2021. – 156 b.
10. FAO. Glossario di termini agricoli. – Roma: Food and Agriculture Organization, 2018. – 320 b.

